

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**4.2022**

**научно-теоретический методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2022**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ikrom**, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma'mun akademiyasi),  
**ABDULLAYEV Ilyos**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ALEUOV Userbay**, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**DO'SCHONOV Tangribegan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IBRAGIMOV Zair**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OLLAMOV Yarash**, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zMU),  
**SAGDULLAYEV Anatoliy**, tarix fanlari doktori, akademik (O'zMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SALAYEVA Muxabbat**, pedagogika fanlari doktori (UrDU),  
**SATIPOV G'oiqnazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN • JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI • 2022 4(178)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti • Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan • **GUVOHNOMA № 1131.**

**Qarshieva Dilbar Eshpo'latovna (Toshkent viloyati Chirchiq davlat Pedagogika instituti,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: [d.karshieva1986@gmail.com](mailto:d.karshieva1986@gmail.com))  
ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA AMALIYOTNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-  
PEDAGOGIK ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Zamonaviy pedagogik ta'limda amaliyot alohida o'rin egallashi ushbu sohaga oid adabiyotlarda qayd etib kelinadi. Chunki o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyot jarayonida qo'llash orqali ularni ko'nikma va malakaga aylantirish mumkin. Ushbu maqolada kasbiy kompetentlikka asoslangan amaliyotning talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda taklif etilayotgan amaliyot turida amaliyotchi-talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan kompetensiyalar yoritilgan.*

***Аннотация.** В литературе по данной тематике отмечается роль практики в современном педагогическом образовании. Потому что полученные теоретические знания можно превратить в навыки и умения, применив их на практике. В статье обсуждаются практики, основанные на профессиональной компетенции, и излагаются компетенции, которые практикующие получают в связи с предлагаемой практикой.*

***Annotation.** In the literatures on this topic, the role of practice in modern teacher education is noted. Because the theoretical knowledge gained can be turned into skills and abilities, applying them in practice. This article discusses competency-based practices and outlines the competencies that practitioners will gain in relation to the proposed practice.*

***Kalit so'zlar:** amaliyot, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, amaliyotchi-talaba.*

***Ключевые слова:** практика, компетентность, профессиональная компетентность, студент-практик.*

***Key words:** practice, competence, professional competence, student practitioner.*

**Kirish.** Bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyot jarayonlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 30-oktabrdagi 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti to'g'risida"gi nizomi bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlarda amaliyotni tashkil etish, unga rahbarlik qilish, amaliyotchi-talabalarning huquq va majburiyatlari, amaliyotni o'tash bosqichlari, uni yakunlash, uning moddiy ta'minoti kabi aspektlar yoritib o'tilgan bo'lsa-da, amaliyotchi-talabalar qaysi amaliyot turida qanday malakalarni, zamonaviy tilda aytganda, kompetensiyalarni o'zlashtirishi borasida fikrlar uchramaydi. O'tgan asrdayoq Yevropa ta'lim tizimiga kirib kelgan "Kompetentlikka asoslangan ta'lim"da har bir mutaxassis o'z sohasiga oid amaliy tajriba, malaka va ko'nikmalarni, boshqacha aytganda, kompetensiyalarni aynan malakaviy amaliyotda o'zlashtirishi ko'zda tutiladi.

Pedagogik OTM talabalarining malakaviy amaliyoti bu ta'lim muassasalarining dolzarb vazifalarini hal qilishga, jamiyatning zamonaviy talablariga javob beradigan shaxsni shakllantirishga qodir bo'lgan pedagog kadrlar tayyorlashning ajralmas qismi sanaladi.

Malakaviy amaliyot – bu talabalarining OTMdagi ta'limi va mustaqil pedagogik faoliyatini bog'laydigan bo'g'in va ularning nazariy tayyorgarligini pedagogik amaliy faoliyat bilan uyg'unligini ta'minlaydi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda, shu sababdan mazkur yondashuv bilan bog'liq bo'lgan «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini olidingi bobda batafsil yoritilgan.

Har bir shaxs, xususan, mutaxassis qanday kompetensiyaga ega bo'lsa, uning kompetentlik darajasi shunga monand namoyon bo'ladi. Malakaviy amaliyot amaliyotchi-talabaning kompetentligini shakllantirish jarayoni hisoblanib, bunda amaliyotchi shaxsiyati uning pedagogik faoliyatida qo'llay oladigan (egallagan) bilim, metodika va pedagogik mahorati hamda texnikasi sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining kasbiy rivojlanishida asosiy rol ni intellektual kompetentlik egallaydi, uning shakllanishi, istisnosiz, barcha ta'lim sohalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagilar orqali belgilanadi:

- ◆odatiy kasbiy muammolarni samarali hal eta olish fazilati;
- ◆zamonaviy ta'lim texnologiyalariga, pedagogik diagnostika, psixologik-pedagogik korreksiya (tuzatish, yaxshilash) mahoratiga ega bo'lish;
- ◆zamon talablariga javob beradigan uslubiy-didaktik g'oyalar, yangi adabiyotlar va boshqa manbalardan ta'lim jarayonida foydalana olish.

O'qituvchilar kasbiy faoliyatini ko'zdan kechirishda quyidagi kasbiy kompetensiyalar hisobga olinadi: metodik kompetensiya, ilmiy tadqiqiy kompetensiyasi, boshqaruvchanlik kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya; pedagogik-ta'limiy kompetensiya.

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri – uning metodik kompetensiyasi borasida ham xulosa chiqarishga imkon beradigan – bu o'qituvchining fanga oid kompetensiyalari. Ular orqali pedagogik adaptastion tizim yuzaga chiqadi: ilmiy (tadqiqiy) bilim, kasbiy faoliyatga oid fazilatlar (namuna doirasida harakat qilish qobiliyati), tabiat, jamiyat va insoniyatga nisbatan ijobiy (hurmat bilan) munosabatda bo'lish tajribasi.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvni amalga oshirish bu malakaviy amaliyotni o'tashning faqat bir aspekti sanaladi. Agar bu jarayon yaxlit ko'rib chiqilsa, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsadlarni belgilash yondashuvlarini o'rganish, tarkibni tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish, natijalarni baholash.

Ammo, shunga qaramay, hozirgi kunda ham aynan shu yondashuvni amalga oshirish natijasida bilimdon o'qituvchi yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda ijobiy va yuqori samarali natijalarni berishi mumkin, deb taxmin qilish mumkin. Fanga oid puxta bilimga ega bo'lish, uning mazmunini anglab yetish kelajakdagi o'qituvchi uchun juda muhimdir. Ammo o'quv jarayonini tashkil etish uchun o'quv jarayoni qonuniyatlarini, o'quvchilarning ta'limiy psixologiyasini bilish talab etiladi. O'quv fani materiallarini o'qib o'rganish, ular bo'yicha puxta bilim egallash bu kompetentlikka asoslangan yondashuv doirasida o'qitish metodikasini amalga oshirish omillaridan biridir. Malakaviy amaliyot texnik qurilmalar bilan shug'ullanmaydi, ularni tadqiq qilish usullarini shakllantirmaydi. Malakaviy amaliyotning obyekti o'rganilayotgan fan yordamida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashdir. Malakaviy amaliyotning predmeti bu o'qituvchining o'quv jarayonidagi metodik faoliyatining obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligidir. Ya'ni, malakaviy amaliyotni o'tayotganda fan bo'yicha bilimlar o'quv jarayoni bilimlari bilan birlashtiriladi.

Malakaviy amaliyot nazariy-amaliy xarakterga ega. Uni amalga oshirish jarayonida nazariy tadqiqot usuli o'zlashtiriladi, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik listey kabi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini pedagogik loyihalashda tajriba ortiriladi.

Mavzu borasida olib borgan o'rganishlarimiz asosida malakaviy amaliyot tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: malakaviy amaliyot – bu o'quvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik faoliyat shakllari, vositalari va metodlarini loyihalash, qo'llash va rivojlantirish bo'yicha alohida pedagogik bosqich hamda tarmoq. Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'qituvchi shaxsiyatini namoyon etuvchi uning bilimi, metodikasi va mahorati bilan o'quvchilar shaxsiyati o'zaro to'qnashadi, ularning o'zaro ta'siri yuzaga keladi.

Amaliyotning o'ziga xos xususiyati shundaki, bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va metodikani fanlar o'quv materiallaridan o'rganadi. O'quv fani mazmunini bilish bo'lajak (boshlang'ich va yuqori sinf) maktab o'qituvchisi uchun juda zarur, ammo o'quv jarayonini tashkil qilish uchun uning qonuniyatlari, o'quvchilarning ta'lim faoliyati psixologiyasini bilish zarur.

Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi – umumiy ilmiy, madaniy, psixologik va pedagogik fanlar bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, shuningdek, o'quv fanlarini o'qitish metodikasini mustaqil ravishda ishlab chiqish uchun kasbiy kompetensiyani, nazariy bilimlarni, pedagogik mahorat va qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat.

O'qituvchini kasbiy tayyorlashda ustuvor bo'g'in sifatida kasbiy kompetentlikka asoslangan malakaviy amaliyotning asosiy vazifalari quyidagilar sanaladi: o'qituvchilik kasbiga doimiy qiziqishni uyg'otish, ushbu kasbni tanlash eng to'g'ri qaror bo'lganligiga ishonchni mustahkamlash; pedagogik faoliyatning yaxlit ilmiy obrazini shakllantirish; o'quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish; mustaqil o'qish, o'rganish va kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini oshirishi zarurligini pedagog ongiga sindirish, ijodiy pedagogik faoliyat tajribasini, pedagogik jarayonga ilmiy tadqiqiy yondashuvni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchining shaxsiy muhim xususiyatlarini va uning faol pedagogik pozitsiyasini shakllantirish, o'quv muassasalariga o'quvchilarni tarbiyalash masalasida yordam berish.

Kompetentlikka asoslangan maktab malakaviy amaliyotining mazmuni talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyati bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) bola, o'spirin, o'rta maktab o'quvchisining shaxsiyatini o'rganish: uning qobiliyatlarini, qiziqishlarini, muloqot va faoliyat motivlarini aniqlash, uning individual rivojlantirish tizimini loyihalash;

b) individual, guruh, sinf, to'garak kabi faoliyatini va ular o'rtasida muloqotni tashkil qilish;

- d) bolalarning bilim olish va ularni idrok etishni ta'minlash;
- e) pedagogik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish.

Kompetentlikka asoslangan malakaviy amaliyotning asosiy mazmuni quyidagicha amalga oshiriladi: fan o'qituvchisi, sinf rahbari, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mutaxassis, o'qituvchi-psixolog, logopedlar bilan hamkorlikda ishlash, eksperimental va uslubiy-didaktik loyihalarda qatnashish, ota-onalar bilan ishlash.

Kompetentlikka asoslangan ta'limga ko'ra malakaviy amaliyotni muvaffaqiyatli tugatgan talabada shakllanadigan kompetensiyalar bo'lajak umumta'lim maktab o'qituvchisi faoliyatining samaradorligini belgilab beradi.

Yuqorida tilga olingan kompetentlikka asoslangan ta'limda malakaviy amaliyotning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning tahlili xulosalariga tayanib, malakaviy amaliyot qanday tashkil etilishi zarurligi, uning shakllari, bosqichlari, maqsad-vazifalari borasida fikr yuritamiz.

Dastavval, amaliyot bosqichlari, ya'ni, kurslarga monand tashkil etiladigan amaliyot turlariga to'xtalamiz.

**Kasbga moslashish, ya'ni adaptiv-psixologik malakaviy amaliyot.** 2-kurs, 4-semestrda tashkil etilishi tavsiya etiladigan "kasbga moslashish, ya'ni, adaptiv-psixologik malakaviy amaliyot"ni 4 hafta davomida, ya'ni 120 soat (bu TVCHDPI o'quv rejasiga ko'ra, 4 kreditni tashkil etadi) qilib belgilash maqsadga muvofiqdir. Uni o'tash jarayonida «Maktab kuni» – amaliyotning ilk kunini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-kurs talabalarining adaptiv psixologik-malakaviy amaliyoti "Umumiy pedagogika", "Umumiy psixologiya" kursini o'rganishga asoslanadi. Talabalar amaliyotini tashkil etish uchun ilmiy asos bo'lib, ularga 1–2-kurslarda o'qitilgan "Ta'limda axborot texnologiyalari", "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi", "Umumiy o'rta ta'lim maktabida me'yoriy hujjatlarni yuritish" fanlari hamda umumta'lim fanlar doirasida o'qitiladigan fanlar xizmat qiladi.

Malakaviy amaliyotni maktab kuni davomida o'tkazish quyidagi tamoyillarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi:

◆Maktabdagi amaliyotni talabaning OTMdagi auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishlari bilan o'zaro bog'lash. Amaliyot davomida talabalar tegishli semestrda o'rganilgan pedagogik fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifalarni bajaradilar. Bu 2-kurs talabasi tinglovchining siklogrammasiga muvofiq olingan bilimlarni pedagogik faoliyat ko'nikma va malakalarida tizimli ravishda mustahkamlashni ta'minlaydi.

◆Ilgari olingan bilimlarni faollashtirish mazkur bilimlarni o'zlashtirilganlik darajasini qayta tekshirishga, shuningdek, kompetensiyalarni takomillashtirish jarayonida ularni mustahkamlash, kengaytirish, konkretlashtirish va chuqurlashtirishga imkon beradi.

◆Amaliyotning tizimliliigi va izchilligi. Rasmiy amaliyot davrida talabalar OTMdagi nazariy mashg'ulotlarni maktab va sinflar bilan bog'lashlari mumkin bo'ladi. Har bir bosqichda talabalarga qo'yiladigan vazifalar qiyinlashib boradi, ularga qo'yiladigan talablar darajasi ham ortadi.

◆Bilamizki, talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari (TITI) va talabalarining o'quv tadqiqot ishlari, ularning tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi kasbiy bilimlarni egallash, yoshlarni ilm-fanga jalb qilishga qaratiladi. Amaliyot davomida TO'TI va TITI o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Amaliyot jarayonida talabalar tadqiqot ishlariga qo'shilishadi, turli xil pedagogik tadqiqot usullarini qo'llaydilar va turli usullarni sinab ko'ridilar.

*Adaptiv-psixologik malakaviy amaliyotning vazifalariga quyidagilar kiradi:*

◆amaliyotchi-talaba o'qituvchilikning ijtimoiy ahamiyatini va o'quvchi shaxsini shakllantirishga uning ta'sirini anglashi;

◆bo'lajak o'qituvchining pedagogik maqsad-intilishlari va uning kasbiy qadriyatlarini shakllantirish.

Amaliyot talabalarining umumiy, kasbiy va fanlarga oid kompetentligi, malaka, qobiliyat va ko'nikmalarini tarbiyalashga, asosiy va o'rta ta'lim muassasalari bilan tanishishga, o'quv jarayonini tashkil etishga, uning mohiyati to'g'risida umumiy ma'lumot olishga qaratilgan.

Adaptiv psixologik-malakaviy amaliyotni o'tagach, talaba-amaliyotchi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'ladi (1-rasm).

Ta'lim bilan bog'liq yangi, kutilmagan vaziyatlarni va uning mantiqiy oqibatlarini baholay olish, ijobiy hodisa sifatida baholanganda unga moslasha olish	→	Umumta'lim maktabi o'quvchilarining ta'lim olish imkoniyatlari, ularning kuchli tomonlarini aniqlash hamda dars mashg'ulotlarini individual yondashuv nuqtayi nazaridan o'zlashtirisholadi	→	Umumta'lim maktabidan biriktirilgan o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan, dars mashg'uloti xaritasini ishlab chiqish va u haqida mulohaza yurita olish
↓				
O'z kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi, uning sifati uchun javobgarlikni his etish	←	Oliy ta'limda o'qish va malakaviy amaliyot davomida orttirilgan bilim va tajribalarni, kuzatishlar natijasida paydo bo'lgan g'oyalarni kasbiy muammolarni hal etishga yo'naltira olish	←	Shakllangan mezonlar asosida umumta'lim maktabidagi pedagogik vaziyatlarni idrok etish va talqin qila olish
↓				
Fan bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish	→	Tarix fanidan dasr mashg'uloti turiga muvofiq metod va texnologiyalarni tanlash, ulardan samarali foydalana olish	→	Umumta'lim maktablarida yuritiladigan hujjatlar bilan ishlay olish
↓				
Kasbiy biografiyani rivojlantirish fonida o'zining pedagogik qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish	←	Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni va uni tashkil etish jarayonini tushuna olish	←	Fanning ishchi dasturi va kalendar-tematik rejalarini mustaqil holda tuza olish

**1-rasm. Adaptiv-psixologik malakaviy amaliyot natijasida egallanadigan kompetensiyalar.**

Malakaviy amaliyot talabalarga o'quv jarayonini tashkil etishning murakkab jihatlari, fan o'qituvchisi va sinf rahbari vazifalarini tushunishga imkon beradi, shuningdek, u mazkur kasbning to'g'ri tanlanganligiga ishonch hosil qiladi.

Adaptiv psixologik-malakaviy amaliyotni tamomlagan amaliyotchi-talaba quyidagi hisobot hujjatlarini topshirishi belgilanishi maqsadga muvofiq:

1. Muayyan vazifalarni bajarganligi to'g'risida biriktirilgan sinf rahbari va fan o'qituvchisi tomonidan qayd etilgan hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlangan amaliyotchining individual rejasi.

2. Pedagogik kundalik.

3. O'quvchilar psixologik tavsifnomasi.

4. Bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot (erkin shaklda).

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy faoliyatda professional muammolarni mustaqil, ijodiy hal qila oladigan, pedagogik faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab eta oladigan mutaxassislarni tayyorlash pedagogik ta'lim mazmunida uzluksizlik hamda uzviyligiga asoslanuvchi klaster yondashuvini taqozo qilmoqda.

Malakaviy amaliyot pedagogik oliy ta'limda asosiy o'quv dasturining ajralmas qismidir, u talabalarning nazariy tayyorgarligini amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydi. Amaliyot talabaga o'qitish va tarbiya berishning qonununiyat hamda tamoyillarini to'liqroq anglash, kasbiy mahorat va amaliy ish tajribasini o'zlashtirishga imkon beradi, o'qituvchi shakllanishida ta'limning eng muhim bosqichlardan biri sifatida qaraladi.

**Kamolov Iftixor Baxtiyorovich (Qarshi davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va muhanduslik grafikasi kafedrasida dotsenti (PhD),  
Qurbonova Mohigul Shoniyozovna (Qarshi davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi))**

## **BOLALARDA MUSIQANI BADIY HIS ETISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN FOLKLOR JANRIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Annotatsiya. Maqolada bola qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirishda bolalar o'yin folklorining o'rnini va ahamiyati, farzandlarimizni xalqimizning ming yillik merosi asosida tarbiyalash, qadriyatlarini*

<b>Nurmatov Zuxriddin Shavkat o'g'li.</b> Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.....	101
<b>Шопулатов Абдималик Нуруллаевич.</b> Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий тадқиқот натижаларини амалиётга татбиқ этиш механизмларини такомиллаштириш.....	103
<b>Qarshieva Dilbar Eshpo'latovna.</b> Zamonaviy pedagogikada amaliyotni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	107
<b>Kamolov Iftixor Baxtiyorovich, Qurbonova Mohigul Shoniyozovna.</b> Bolalarda musiqani badiiy his etishlarini rivojlantirishda o'yin folklor janridan foydalanishning ahamiyati.....	110
<b>Asilbekov Nurjon Baxtiyarovich.</b> Talaba-yoshlarni ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy va o'zini-o'zi tarbiyalash omillari.....	113
<b>Otamuratova Saodat Shonazarovna, Eshchanov Erkabay Uskinovich, Masharipov Azamat Tursinboyevich.</b> Organik kimyo kursining "to'yingan bir atomli spirtlar" mavzusini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanish.....	116
<b>Ibraximov Sanjar Urumbayevich.</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagog-murabbiylarni tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari.....	121
<b>Ziyatov Muhammad Nazozovich.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda statik stretching mashqlardan foydalanish texnologiyalari.....	124
<b>Turdieva Mohira Jo'raqulovna.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Til va nutq" markazida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	127
<b>Тураев Ёлкин Шерзод ўғли.</b> Maktabgacha katta ёшдаги болаларни табиат билан таништириш метод ва воситалари.....	130
<b>Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Hamrayeva Saida Ismailovna, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi.</b> Ta'lim jarayonida google xizmatlaridan foydalanish.....	133
<b>Mattiev Ilhom Begmatdulobovich.</b> "Health Care" tafakkurini shakllantirishda o'qituvchi kompetensiyasi va uning ahamiyati.....	137
<b>Абдуганиева Джамиля Рустамовна.</b> Методика обучения последовательному переводу студентов языковых ВУЗов.....	139

#### ILMIY AXBOROT

<b>Отамуродова Дилафруз.</b> Француз тилида диалоглар мулоқот шакли сифатида қўлланишининг айрим хусусиятлари.....	151
<b>Fayzullayeva Muhayo Raxmatillayevna.</b> Diniy markerlangan alluziyalarning badiiy matnda konsept sifatida galdalanishi.....	153
<b>Allayorov To'lqin Ro'ziqulovich.</b> Nasriy asarlarda qo'llanilgan so'roq birliklarining lingvopoetik xususiyatlari.....	156
<b>Hakimboy Matyoqubov.</b> O'zbek va ingliz tillarida eski va yangi tushunchalari zidligi asosidagi toponimlar.....	159
<b>Tuychiyev Adhamjon Tuxtaboyevich.</b> Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash masalalari.....	162
<b>Якубова Матлуба.</b> Эркин Самандар шеърлятида архаик қатлам.....	165
<b>Nuritdinova Shoira Xamidovna.</b> Nemis va o'zbek tillarida qo'shma otlar yasalishining o'ziga xos xususiyatlarigi.....	169
<b>Xalilova Shaxlo Jalilovna.</b> O'zbek va ingliz xalq ertaklarining umumiy o'xshashliklari.....	171
<b>Гафуров Бахтиёр Закирович.</b> Текст рекламы гигиенических средств и его лексико-тематические группы.....	174
<b>Уринова Шахло Абдихалимовна.</b> Место интернационализмов среди заимствованной лексики.....	178
<b>Тохтиева Регина Шамильевна.</b> Концепт "женщина" в русских и узбекских пословицах.....	181
<b>Абдувахобова Умида.</b> Прагматические аспекты перевода художественного текста.....	183
<b>Агзамходжаева Шахноза Саидматлабовна.</b> Алишер Навои и предпринимательство.....	186
<b>Ахмедова Нилуфар Мамасидиковна.</b> Диагностический инструментарий оценки уровня сформированности алгоритмической компетентности в процессе дифференциального обучения у будущих педагогов начальных классов.....	189
<b>Polvanova Makhzuna Farxadovna.</b> Semantic Analysis of Phraseological Units Containing Currency in their Components in English and Russian Languages.....	192
<b>Акрамова Тахмина.</b> Romantic Writers' Groundbreaking in the Short Story Genre.....	195